


SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




2018 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soni 60 tani tashkil qilib, ular tomonidan 40456 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

Tashrif buyuruvchilarning 30678 nafari chet-el fuqarolari shundan 707 nafari MDH davlatlari fuqarolari va 8017 nafari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkil qilgan. Shuningdek turistik firma va tashkilotlar tomonidan O'zbekistondan jo'natilgan shaxslar 1735 nafarni tashkil qildi. Shundan xorijiy mamlakatlarga 441 nafar ulardan MDH mamlakatlariga 303 nafar kishi, qolgan 1294 nafar fuqarolar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab safarlarni amalga oshirishgan.



2018 yilda Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va O'zbekiston fuqarolari ulushi, foizda




2018 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan 3519 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, ularning qiymati 32542,8 mln.so'mni tashkil qildi.

2018 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

| | Soni, birlikda | Qiymati, mln.so'm |
|--|----------------|-------------------|
| Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami | 3519 | 32 542,8 |
| Ulardan bevosita aholiga | 3519 | 32 542,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga | 1633 | 13 553.3 |
| Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga | 303 | 976.6 |
| O'zbekiston hududi bo'yicha MDH fuqarolariga | 315 | 1382 |
| O'zbekiston hududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga | 1268 | 2 8829 |

2018 yilda sotilgan 3519 ta sayyohlik yo'llanmalarining barchasi aholi tomonidan sotib olingan.


2018 yilda Samarqand viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2018 yilda Samarqand viloyati mehmonxonalarnig toifasi (yulduzi)

2018 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 111 tani tashkil qildi. Ulardan 14 ta bir yulduzli, 1 ta ikki yulduzli, 9 ta uch yulduzli, 9 ta, to'rt yulduzli va qolgan 70 tasi esa, toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalardir.

2018 yil mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati, foizda



■ bir yulduzli ■ ikki yulduzli ■ uch yulduzli ■ to'rt yulduzli ■ toifaga ega emas



2018 yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni 139 tani tashkil qilib shundan 111 tasi mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari bo'lib, 98 ta mehmonxona, 2 ta ponsianat, 11 ta qisqa muddat yashashga mo'ljallangan joylar qolgan 28 tasi sanatoriya kurort, xostel va shunga o'xshash umumiy yotoqxonalaridir.

